**"T A S D I Q L A Y M A N"**
**"O'zmilliybank" AJ Toshkent shahar**
**Bosh boshqarmasi "Markaziy amaliyot" BXM**
**boshqaruvchisi v.b.**
**A.Xolisboyev**

"25" mart 2026 yil

**«O'zmilliybank» AJ Toshkent shahar Bosh boshqarmasi "Markaziy amaliyot" BXM va "City" BXO xodimlari bilan korrupsiya yo'nalishi bo'yicha o'tkazilgan davra suhbati**

**B A Y O N I**

**Raislik qiluvchi:** "O'zmilliybank" AJ Toshkent shahar Bosh boshqarmasi "Markaziy amaliyot" BXM boshqaruvchisi v.b. A.Xolisboyev.

**Qatnashganlar:** "O'zmilliybank" AJ Toshkent shahar Bosh boshqarmasi "Markaziy amaliyot" BXM va "City" BXO xodimlari.

**O'tkazilgan sanasi;** 25 mart 2026 yil.

**K U N T A R T I B I;**

1. "O'zmilliybank" AJ "Komplaens tavakkalchiligi" blokining 2026 yil 12-martda 35-242-sonli "Anonim so'rovnoma" bo'yicha yuborgan ko'rsatma xatining ijrosini ta'minlash to'g'risida;
2. "O'zmilliybank" AJ Toshkent shahar Bosh Boshqarmasi "Markaziy amaliyot" BXM va "City" BXO xodimlarining huquqiy bilim saviyasini oshirish maqsadida, "Korrupsiya bilan bog'liq jinoyatlar sodir etilishiga imkon beruvchi shart-sharoitlar va ularning oldini olish to'g'risida tushuncha berish.

Davra suhbati avvalida "O'zmilliybank" AJ Toshkent shahar Bosh boshqarmasi "Markaziy amaliyot" BXM boshqaruvchisi v.b. A.Xolisboyev ushbu tadbirni tashkil qilinishi sababi to'g'risida to'xtalib, xususan har bir mamlakatda korrupsiyani keltirib chiqaruvchi sabablarni ochiq, ommaviy vositalar yoki anonim so'rovnomalar o'tkazib, so'rovnoma natijasidan kelib chiqqan holda korrupsiya yo'nalishi bo'yicha keyingi sog'lomlashtirish tadbirlari o'tkazilishi, 2025 yil noyabr-dekabr oylarida O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining topshirig'iga asosan "O'zmilliybank" AJ tizimida bank iste'molchilari, tadbirkorlar va keng jamoatchilik o'rtasida anonim so'rovnoma o'tkazilgani, ushbu anonim so'rovnoma natijasi bilan tanishtirish va xodimlarning huquqiy bilim saviyasini oshirish ekanligini aytib otdi.

O'z navbatida, Xodimlar bilan ishlash boshqarmasi bosh mutaxassisi M.Abdullayeva tomonidan "O'zmilliybank" AJ Komplaens tavakkilchiligi blokining 2026 yil 12-martdagi 35-242-sonli ko'rsatma xati xodimlarga o'qib eshittirilib tanishtirildi, so'rovnoma natijasidan xulosa qilib quyidagilarga e'tibor qaratish lozimligi tushuntirildi. ***Jumladan,*** mijozlar bilan ishlash jarayonida umuman byurokratiyaga yo'l qo'ymaslik, bank korporativ etika qoidalariga qat'iy rioya qilish, xizmat vazifalarini vijdonan, halol va yuksak professional darajada bajarish, rasmiyatchilik, soxtakorlik va suiste'molchilikka yo'l qo'ymaslik, har qanday qonunbuzilishiga, ayniqsa, korrupsiya holatlariga qarshi murosasizlik bilan kurashish, mehnat va ijro intizomi, ichki mehnat tartibi qoidalariga qat'iy

rioya etish, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini qonunda belgilangan tartibda hamda muddatlarda qonuniy, asosli va adolatli hal qilish lozimligi batafsil tushuntirildi.

O'tkazilgan so'rovnoma natijasida ayrim fuqarolar bank xodimlari tomonidan kredit mahsulotlari, bank kartalari va turli to'lov jarayonlarini amalga oshirishda "choy-chaqa yoki sovg'a talab qilish holatlarga duch kelganligini bayon qilganidan kelib chiqqan holda, barcha xizmat ko'rsatuvchi bo'lim xodimlari o'zlariga tegishli xulosa chiqarib olishlari, 2026 yilning 6- fevral kuni "Korrupsiyaga qarshi kurashish" Agentligi tomonidan 2025 yilda 6373 nafar shaxs tomonidan 5222 ta jinoyat sodir etilgani, hududlar kesimida korrupsiyaviy ishlar Farg'ona va Surxondaryo viloyatlarida ko'paygani va hokimliklar kesimida eng ko'p korrupsiyaviy jinoyatlar Toshkent shahrida-612ta aniqlanganidan dalolat shuki, xuquqni ximoya qilishlari idoralar tomonidan korrupsiyaning payini kesish bo'yicha faol ishlar olib borilayotgani misollar tariqasida tushuntirildi.

So'rovnomada bank xodimlarining odob-ahloq va muomala madaniyatiga rioya qilmaganlik holati bo'yicha Toshkent shahri bo'yicha 32 nafar fuqarolar shunday holatga duch kelganligini bayon qilgani juda achinarli holat ekanligiga urg'u berilib, barcha bo'lim boshliqlariga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 14 oktyabrdagi 595-sonli "Davlat fuqarolik xizmatchilari tomonidan odob-axloq qoidalariga rioya qilish" to'g'risidagi qarori va "O'zmilliybank" AJ Bank xodimining kasb odob-ahloq kodeksiga qat'iy amal qilishga o'rgatish ko'rsatmasi berildi.

«O'zmilliybank» xizmatlaridan foydalanishda tanish-bilishchilik bo'yicha 15 nafar, qarindosh-urug'chilik xolatlarning mavjudligi bo'yicha 27 nafar va ishga qabul qilish jarayonlari to'g'risida berilgan savollarga salbiy izohlar qoldirganidan xulosa chiqargan xolda, Xodimlar bilan ishlash Boshqarmasi bosh mutaxassisi M.Abdullayeva tomonidan "Markaziy amaliyot" BXM va "City" BXO xodimlariga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 iyundagi PF-6013-sonli «O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmoni bo'yicha qo'shimcha seminar o'quv mashg'ulotini o'tkazish tavsiya qilindi.

Shundan so'ng, kun tartibidagi ikkinchi masala bayon qilinib, korrupsiyaga qarshi kurashishning eng to'g'ri va samarali yo'li bu-jamiyatda korrupsiyaning paydo bo'lishiga imkoniyat yaratayotgan shart-sharoit va omillarni aniqlash hamda ularni bartaraf qilish hisoblanishi, Kriminologik adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, hozirgi kunda korrupsiyaning yuzaga kelishi va rivojlanishida bir nechta asosiy, o'zaro aloqada bo'lgan va bir-biriga ta'sir etuvchi omillar mavjudligi, bular-*jinoyatchilik sabablari* jinoyatlarning sodir etilishini taqozo qiladigan, ularni oziqlantiradigan, ko'payishini ta'minlaydigan hodisa, voqea va jarayonlarning yig'indisi aniqlangan. Shaxs tabiatida bo'ladigan g'arazgo'ylik, ruju qo'yish, birovlar hisobiga yashash, millatchilik, jamiyatda mavjud huquq va odat normalariga rioya etmaslik kabi holatlar jinoyatchilikni kelib chiqishiga omil bo'lishi va *jinoyatchilikning sharoitlari* esa jinoyatlarni sodir etilishiga ko'maklashadigan hodisa, voqea va jarayonlar yig'indisi ekanligi tushuntirildi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, barcha xodimlar ish faoliyati davomida mavjud qonunlar va bank me'yoriy hujjatlariga so'zsiz rioya etishlari, har qanday qonunbuzilishiga, ayniqsa, korrupsiya holatlariga qarshi murosasizlik bilan kurashish, davlat xizmatchilari yoki boshqa shaxslar tomonidan jinoyat yoki boshqa huquqbuzarlik sodir etishga undovchi murojaatlar yoki hamkasblari tomonidan sodir etilgan yoki tayyorgarlik ko'rilayotgan qonunbuzilishlar haqida o'zining rahbariga zudlik bilan ma'lum qilish lozimligi batafsil tushuntirildi.

Davra suhbatida ko'rib chiqilgan yuqoridagi masalalar atroflicha muhokama qilindi va kun tartibidagi masala yuzasidan quyidagicha

## QAROR QILADI:

1."O'zmilliybank" AJ "Komplaens tavakkalchiligi" blokining 2026 yil 12 martdagi 35-242-sonli "Anonim so'rovnoma" bo'yicha yuborilgan ko'rsatma xati «O'zmilliybanki» AJ Toshkent shahar Bosh Boshqarmasi "Markaziy amaliyot" BXM va "City" BXO tomonidan ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2.O‘zmilliybank” AJ Toshkent shahar Bosh boshqarmasi Markaziy amaliyot bank xizmatlari markazida korrupsiyaning oldini. olishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishda BXM rahbariyati mas’ulligi e’tiborga olinsin hamda barcha tarkibiy bo‘linma boshliqlari tomonidan ushbu yo‘nalishda profilaktik tadbirlar o‘tkazilishi belgilansin hamda bank jamoasida sog‘lom muhitni saqlash, xodimlar o‘rtasida korrupsiyaning har qanday ko‘rinishiga murosasizlikni shakllantirish choralari ko‘rilsin.

3.Bo‘lim boshliqlari va sho‘ba mudirlari ushbu yo‘nalishda qo‘l ostidagi xodimlari uchun shaxsiy o‘rnak bo‘lishlari shartligi va qo‘l ostidagi xodimlar ustidan doimiy nazorat olib borishlari ta’minlansin.

4.Markaziy amaliyot BXM boshqaruvchi o‘rinbosarlari, bo‘lim boshliqlari va sho‘ba mudirlari tomonidan o‘z xodimlarining xizmat majburiyatlarini qanday bajarayotganini muntazam nazorat qilib borish hamda xodimlarning xizmat vazifalariga oid bo‘lmagan ishlar bilan shug‘ullanishiga yo‘l qo‘yilmaslik bo‘yicha doimiy nazorat o‘rnatilsin.

**Yig‘ilish kotibi:** _____ **M.Abdullayeva**